

**O‘ZBEK TILIDAGI ANTROPONIMIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK
TABIATI
(TOHIR MALIK IJODI MISOLIDA)**

Hamroyeva Maftuna Rasulovna

f.f.f.d.(PhD), Buxoro davlat universiteti, Filologiya fakulteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o‘qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, adabiy til, badiiy til, borli, badiiylik, badiiy asar, badiiy uslub, din, familiya, laqab, nom, taxallus, urf-odat, uslubiyat.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi uslubidagi antroponimik birliklar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy asarda tutgan o‘rni asar matni orqali sharhlanadi. Shuningdek, ism ma’nosi va nomning matndagi o‘rni o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib xulosalanadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Kirish

Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlarida antropotsentrizmning ilmiy tadqiqotlarda ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanishi, barcha ilmiy sohalarda inson shaxsini o‘rganishga e‘tibor ortishi bilan xarakterlanadi. Xususan, tilshunoslikda bunday yondashuv shaxs va dunyoning lisoniy manzarasini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Bunda onomastik birliklar tizimida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi antroponimlarni tadqiq etish ham xalq turmush tarzi, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini milliy tilda aks ettiruvchi lisoniy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida ismshunoslik tilshunoslikning nomshunoslik sohasi tarkibida muhim yo‘nalish sifatida tobora ham nazariy, ham amaliy takomillashib bormoqda. Ayniqsa, onomastik tendensiyalar orasida adabiy onomastika, ya’ni adabiy matnlardagi kishi nomlarini aniqlash, ularning gender genezisi, etimologik xususiyatlarini shu nomlardan foydalanuvchi aholining milliy an’ana va qadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush tarzi, e‘tiqodiy dunyoqarashi, badiiy-madaniy boyliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar asosida o‘rganish, xalqning lisoniy, tarixiy, geografik, etnografik, diniy-mifologik qarashlari mujassamlashgan antroponimlarning lingvokulturologik, paradigmatic, onomastik-grammatik belgilarini ochishga alohida diqqat qaratilmoqda.

O‘rganilish darajasi

O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 60-70-yillari orasida bir qator yo‘nalishlar o‘z tadqiq obyektiga ega bo‘lgan mustaqil soha sifatida ajralib chiqq boshladi. Jumladan, tilning atoqli otlar tizimini maxsus tadqiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan onomasiologiya yo‘nalishi ham jadal rivojlanish yo‘liga

o‘tdi. E.Begmatov¹ o‘zbek antroponimiyasini tadqiq etgan bo‘lsa, R.Nuritdinova² o‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy xususiyatlarini o‘rgandi. Tilshunos E.Qilichev³ ishlarida antroponimlarning stilistik qo‘llanilishi masalasiga e‘tibor qaratildi.

Sh.Jo‘rayev⁴ tadqiqotida Zarafshon vodiysida yashovchi o‘zbek va tojik tilida so‘zlashuvchi aholi o‘rtasidagi ikki tillilik hozirgacha davom etib kelayotganligini hududga xos antroponimlar misolida ko‘rsatib bergan. D.Andaniyozovning “Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvopoetikasi”, N.Husanovning “XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari” hamda D.Yuldashevning “Tarixiy antroponimlarning antropotsentrik tadqiqi” nomli tadqiqotlarida ham antroponimlar oldida turgan bir qancha dolzarb muammolarga o‘z yechimini topgan.

Material va metod.

Adib Tohir Malikning ijodida antroponimik shakllarning qo‘llanilishida o‘ziga xos uslubning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Asardagi antroponimik birliklar tahlilida qiyosiy hamda tavsiflash tahlil metodidan unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Antroponimlar – bu qanday xarakterga ega bo‘lishidan qat‘i nazar, insonni ko‘rsatadigan nomlar: haqiqiy yoki o‘ylab topilgan xayoliy personaj.

Antroponimning asosiy vazifasi insonni individuallashtirishdir. Har bir antroponimga o‘ziga xos xususiyat beriladi. Birinchidan, antroponimning tashuvchisi shaxs ekanligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, shaxsning jinsini bildiradi. Uchinchidan, milliy-lingvistik jamoaga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, kundalik turmushdan tashqari, badiiy asarlarda ham antroponimlar keng qo‘llanib, ma‘lum vazifa bajarishga xizmat qiladi. Nomlar bir necha vazifalarni bajaradi:

- 1) semantik yuk ifodalaydi;
- 2) milliy va mahalliy o‘ziga xosliklarni, an‘analarni ifodalaydi;
- 3) tarixiy davrni aks ettiradi va h.

Badiiy asar antroponimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning alohida joyi hisoblanadi, shuning uchun nomlar obraz yaratishning eng muhim vositasidirki, ular asardagi mazmunning shakllanishiga yordam beradi.

Agar kundalik turmushdagi til birlamchi model tizimi bo‘lsa, unda badiiy matn haqiqiy va fantastik dunyolarni birlashtirgan ikkilamchi model tizimidir. Bu axborot tarkibining oshishini anglatadi. Adabiy matnning o‘ziga xos xususiyati ham talqin sifati, matnning yashirin ichki ma‘nosi. Nomga maxsus ma‘no berilganligi sababli, badiiy asarni muayyan matnda nomlarni o‘rganmasdan turib tahlil qilish mumkin emas. Antroponim tahlil qilinishi uchun ijtimoiy-madaniy tajriba ham kerak bo‘ladi.

Badiiy asarlardagi qahramonlar xarakter-xususiyati va qiyofasini yoritishda esa ko‘pincha yozuvchilar antroponimik birliklardan, ya‘ni kishi nomlaridan, laqablardan, qahramon familiyasidan foydalanadilar. Bu kabi birliklar qahramonning kelib chiqishi, hayotdagi o‘rni, kasb-kori, hayot tarzi, atrofida qilargalarga munosabati, tashqi ko‘rinishi, kiyinishi va hokazolar haqida ma‘lumot berishi mumkin. Badiiy asarda ijodkor antroponimik birliklardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Jumladan,

¹ Begmatov Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Т.: Фан, 1965.; Begmatov Э. Киши исмлари имлоси. – Т.: Фан, 1970.; Begmatov Э. Ўзбек исмлари имлоси.–Т.: Фан, 1972.; Begmatov Э. Ўзбек исмлари. – Т.: ЎЗМЭ, 1991.; Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Т., 2013. – 264 б.; Begmatov Э. Ўзбек исмлари маъноси. –Т.: ЎЗМЭ, 2007. – 608 б.

² Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 23 б.

³ Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 4.

⁴ Жўраев Ш. Зарафшон минтақавий регионимлари ҳақида мулоҳазалар // Хорижий филология. – №1. 2016. – Б. 77-81.

1. Biror shaxsni xarakterlovchi, uning ustidan hazil-mutoyiba yoki kamsitish, haqorat vositasi sifatida. Masalan: ...*Ertasi Ulton piyonning vahimasiga “ergashib” rayondan chiqib kelgan bir to‘da odam Quriqsoy yoqasiga enaverib, ko‘ngil aynituvchi manzarani ko‘rdi*⁵. Bu misolda *piyon* so‘zidan foydalanib, ijodkor shu personajning ichkilikka berilgan kishi ekanligiga ishora qiladi.

Bundan tashqari *ezmachuruk, shayton* kabi so‘zlar shaxsni salbiy tomondan xarakterlaydi. Bu xususiyati bilan ular laqabga yaqin turadi. Ammo hali laqab darajasiga ko‘tarila olmaydi. Qachonki bunday so‘zlar ijodkor tomonidan ko‘p marotaba o‘sha ma’noda, ya’ni shaxsni xarakterlash uchun qo‘llansa, shaxsning doimiy o‘ziga xos belgisiga aylansagina, laqab darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Mana shunday darajaga yetganda bu so‘zlar shaxsning ismiga qo‘shilib aytila boshlaydi va laqab shakllanadi: *Saltanat ezmachuruk, Boqi shayton* kabi.

2. Laqablarning shakllanishida laqab vazifasidagi so‘zning shaxsning ismi o‘rnida qo‘llana boshlashi, ya’ni shaxsni ismi bilan emas, laqabi bilan atash odat bo‘lishi ham mumkinki, bunda laqab atoqli ot vazifasini bajara oladi. Laqabning shaxs ismi o‘rnida qo‘llanilishi uni to‘liq ma’nodagi laqab sifatida shakllantiradi.

✓ *Sadir Minullin degan odamni taniysizmi?*

✓ *Tanimayman.*

✓ *Ha... To‘g‘ri, Minullinni tanimasligingiz mumkin, lekin Qozon deganni bilishingizni rad etolmasangiz kerak. Qozon – Minullinning laqabi*⁶.

3. Ijodkorning yana bir maqsadiga ko‘ra laqabga aylangan, aniqrog‘i, laqab vazifasiga ko‘chgan so‘z doim shaxs ismi tarkibida, u bilan birga qo‘llaniladigan yoki ism o‘rnida mustaqil holda laqab vazifasini bajaradigan bo‘lib keladi. Bunda laqabning kishi ismidan keyin kelishi tipik holatdir⁷. Masalan: *Po‘lat puchuqqa uchrashgandim, – garajda dispetcher edi, – “Jo‘rajon, besh yuz so‘m bermasang, moshin ololmaysan”, – dedi. Menda sariq chaqayam yo‘q. Puchuq ko‘p gapiravergan edi, “asli meni emas, seni qamashlari kerak edi”, – dedim*⁸.

4. Laqab oddiy, funksional-nominativ vazifadan tashqari uslubiy vazifani ham bajara oladi. Bunga ko‘ra, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan laqablarning ma‘lum guruhlari badiiy adabiyot tilida uslubiy badiiy vosita sifatida qo‘llana boshlaydi. Badiiy adabiyot tiliga kirgan laqablar asarda ishtirok etuvchi asar qahramonlari, personajlarning xarakterini ochishda, ularni satirik, yumoristik vaziyatlarda tasvirlashda, asar tiliga emotsional-ekspressiv ruh bag‘ishlashda muhim rol o‘ynaydi.

Laqablarning uslubiy xususiyatlari badiiy tilda, ayniqsa, shaxslarning salbiy xususiyatlarini tasvirlash, asar qahramonlarining, qolaversa, yozuvchining laqab egasiga munosabatini ifodalashda juda qo‘l keladi. Masalan,

✓ *E! – dedi Hasan. Qulluq bo‘lsin, tiling chiqib qopti?*

✓ *Ha, tilimni... chiqardingiz, – javob qildi Shodagul pismiq*⁹.

Badiiy adabiyot tiliga kirgan laqablarning hammasi ham uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmasligi mumkin. Agar bu xususiyat laqab egasining kasb-kori, mashg‘uloti, o‘zidagi belgi-xususiyat bilan bog‘liq bo‘lsa, yuqorida aytib o‘tilganidek uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmaydi. Bunga quyidagi parchalarni misol qilib keltirish mumkin:

1. *Shunda Quyun qo‘rboshi o‘girildi*¹⁰.

⁵ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 15.

⁶ Тохир Малик. Падаркуш. – Т., 2014. – 163 б. – Б. 99.

⁷ Рашидова М. Лақабларнинг услубий-функционал хусусияти хақида // Тил ва адабиёт таълими, 2009. 4. – Б. 31-33.

⁸ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 68.

⁹ Тохир Малик. Падаркуш. – Т., 2014. – 163 б. – Б. 89.

2. *Uning otasi Rahmon polvon qirq yoshida ham kurashda yiqilmagan, keyin bir o'rta yashar o'rtacha polvon bir qoqmada yiqitib qo'rganida dardi shunchalikki, omborga bo'yra to'shab, ustidan suv sepib, unga bag'rini berib yota-yota oldin yo'talni orttirib, keyin qon qusa-qusa o'lib ketgandi*¹¹.

3. *Omon mergan mahsi ustidan choriq kiyib olgan, oyog'i yengil, qorga botmasdi*¹².

4. *...Botir cho'pon iljayib, quvonib dasturxon yozdi*¹³.

5. *Madiyor dallolning o'g'li*¹⁴

Badiiy asarda qahramonni ism-familiyasi bilan birga nomlash holatlari ham kuzatiladi. Buni yozuvchi Shukur Xolmirzaev uslubida yaqqol uchratish mumkin. Yozuvchi mansabdor shaxsning obrazini ifodalashda shu usuldan foydalanadi:

1. *Kozim Puxtaev ellikdan oshgan, mayin-ipakdek kishi*¹⁵.

2. *Dilnura Qosimovani kuzatib partkom kotibi ham chiqqach, Husan Keldiev stol qoshida bir qo'lini beliga tiragancha ikkinchi qo'lini cho'zib:*

✓ *Ana, qog'oz, ruchka... Yoz, yoz!*¹⁶

3. *Boyquvar tashqariga chiqqanida gardishi tepaga qayirib qo'yilgan shlyapasini boshiga kiygan Shoyim Shaydulov bitta byuro a'zosining "Moskvich" mashinasi yonida edi*¹⁷.

4. – *Ajabo, men bilmay yurgan ekanman. Qoching yo'ldan, – dedi. – Hov, Xo'jamboy Madiyorov!*¹⁸

Yozuvchi Tohir Malik uslubida esa mansabdor qahramonlarni ularning mansabi orqali ifodalanishini kuzatish mumkin:

✓ *Prokurorning ayblovini tushundingizmi? Jinoyatingizga iqormisiz? Sohib savolni tushunmaganday sud hakamiga qarab qoldi. Hakam yoshlarning o'jarlik odatlari borligi uchun ham uni qistamadi.*

Hakam prokurorga baqirib yubormaslik uchun, ko'zlarini undan oldi.

*Komissar avvaliga uning harakatini tushunmadi*¹⁹.

Shunday qilib, shaxs nomlariga qo'shib kelgan turli xil laqablar, familiyalar ushbu shaxslarning jamiyatdagi mavqei, o'rnini ko'rsatish bilan birga kitobxonga ma'lum bir axborotni yetkazishga ham xizmat qiladi, badiiy tasvirda obraz mohiyatini yanada yorqinroq anglashga yordam beradi va har bir ijodkorning o'ziga xos tasvir vositasi, uning maqsadi va asar g'oyasini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan muhim vositadir.

Tadqiqotimiz oldiga Tohir Malik badiiy asarlarida qo'llangan antroponimik shakllarning lisoniy, semantik-stilistik xususiyatlarini aniqlashni maqsad qildik. Chunki har bir adib ijodida antroponimlardan o'ziga xos maqsadda foydaniladi, bizningcha, bu Tohir Malik ijodida alohida ahamiyat kasb etadi. Antroponimik shakllarni ilmiy jihatdan o'rganish, tadqiq etish hamda ularning qo'llanish doirasini, amaliy ahamiyatini yoritish muhim masalalardan biridir. Qayd etilganidek, yozuvchining badiiy mahorati, dunyoqarashi, "men"i bevosita qahramonlarning nomlanishida namoyon bo'ladi.

¹⁰ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 100.

¹¹ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 88.

¹² Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 32.

¹³ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 67.

¹⁴ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 95.

¹⁵ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 103.

¹⁶ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 206.

¹⁷ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 280.

¹⁸ Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2005. – 305 б. – Б. 103.

¹⁹ Тоҳир Малик. Падаркуш. – Т., 2014. – 163 б. – Б. 89.

Xulosa

So‘nggi yillarda dunyoning turli mamlakatlarida onomastika sohasidagi tadqiqotlarga qiziqish sezilarli darajada kuchaydiki, bu shaxs ismlarini etnolingvistik, pragmalolingvistik, lingvokulturologik tadqiqotlarda asosiy obyekt material sifatida o‘rganilishini ta‘minladi.

O‘zbek badiiy adabiyotidagi antroponimlarni lingvistik, ma‘naviy, stilistik va pragmatik tadqiq etish ularning imkoniyatlarini ko‘rsatishga, badiiy asar mohiyatini ochishga, yozuvchi intensiyasini yetkazib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun mohir yozuvchi Tohir Malik badiiy asarlarida qo‘llanilgan antroponimlarni monografik tarzda tadqiq etish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 2-нашри. – Тошкент: «О‘ЗМЕ», 2007. 604 б.
2. Бегматов Э.А. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 12;
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси (Библиографик кўрсаткич). – Наманган, 2008. – Б. 134-145.
4. Tohir Malik. Voy onajonim. - T .: “Yangi asr avlodi”, 2018. 66-p.
5. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story" Devona"). *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
6. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. *Journal of Contemporary*.
7. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
8. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPONYMS. *Chief Editor*.
9. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(4), 391-398.
10. HAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
11. Ahmedov, A. R. (2022). Some Feedback About Linguistic Knowledge. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(5), 125-131.
12. Raxmatovich, A. A., & Rasulovna, H. M. (2022). BADIY ASAR ANTHROPONIMLARIDA LUGAVIY QATLAM MASALALARI (TOHIR MALIKNING IJODI MISOLIDA). *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(4), 399-402.
13. Akhmedov, A. R., & qizi Po‘latova, S. M. (2021, December). O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish. In *Conferences*.
14. Akhmedov, A. R. (2021). AREALOGIYA TUSHUNCHASI HAQIDA: Atullo Rakhmatovich Akhmedov Buxoro davlat universiteti dotsenti Buxoro, O‘zbekiston ar ahmedov@ buxdu. uz Sevara Mahmud qizi Po‘latova Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi Buxoro, O‘zbekiston E-mail: sevaramahmudqizi@ gmail. ru. In *Научно-практическая конференция*.
15. Rahmatovich, A. A. VOBKENT TUMANI SHEVASIDA SO‘ZNING MORFEMIK TARKIBI. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 123.